O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI JIZZAX SHAHAR HOKIMI QARORI

2024 - yil 9 - yanvar 5-3-55-Q/24 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahar Toshloq mahallasi Islom Karimov shoh ko‘chasi va Shifokorlar ko‘chasi chorraxasida, Kimyogar mahallasi Amir Temur ko‘chasida, Mirzo Ulug‘bek mahallasi Farhod ko‘chasida hamda Bobur mahallasi Zarafshon ko‘chasida harakat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida taqiqlovchi belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarorlarining ijrosini ta`minlash maqsadida, Jizzax shahari yo`l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 30-apreldagi 10/6-815-sonli, 2023-yil 18- sentyabrdagi 10/6-1014-sonli xati, fuqaro X.Mustafayevaning arizasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida, Jizzax shahari yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 30-apreldagi 10/6-815-sonli, 2023-yil 18- sentyabrdagi 10/6-1014-sonli xati, fuqaro X.Mustafayevaning arizasi ma`lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Harakat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida Jizzax shahar Toshloq mahallasi Islom Karimov shoh ko‘chasi va Shifokorlar ko‘chasi chorraxasida, Kimyogar mahallasi Amir Temur ko‘chasida hamda Mirzo Ulug‘bek mahallasi Farhod ko‘chasida 3.27 taqiqlovchi (to‘xtash taqiqlangan) yo‘l belgisi hamda Bobur mahallasi Zarafshon ko‘chasida sun’iy notekisliklar, 1.14.1 piyodalar o‘tishlari uchun zebra va yotiq yo‘l chiziqlarini chizish, 5.16.1 va 5.16.2 (Piyodalar o‘tish joyi) va 1.31 (Sun’iy yo‘l notekisligi) yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Shahar ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Abullayev), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (G‘.Axmedov)ga shahar hududidagi ko‘chalarda ikki tomoniga belgilangan tartibda yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Shahar moliya bo‘limi (A.Abdujalilov)ga yo‘l belgilarini o‘rnatish xarajatlari uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratilib berish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari X.Onalbayev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **К.Холмуродов**